


XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 18 325,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 115,1 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,088%ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Yanvar-dekabr

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 12,7 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 24,3 %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining 0,2 %ga o'sishi kuzatildi, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 92,1 %ga kamayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,2 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,006 %ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so'm

Yanvar-dekabr

FHI,% da



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17 608,9 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,1 %ini tashkil etdi.

**2021- yil
yanvar-dekabr**


96,5 %

**2022- yil
yanvar-dekabr**

96,1 %




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,10 %-ni (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,13 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 41,1 %-ni (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – 39,5%), o'rta-quyi texnologiyali – 4,2 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – 5,7 %) va quyi texnologiyalisi – 50,7 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – 51,3%)ni tashkil etdi.


■ 2022- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'matish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 43,7 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 133,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,1 % (2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,6 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 68,0 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,5 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 65,5 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da *





2022- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 81 721,4 tonna (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 16,2 % ga oshgan), paxta chigit 143 544,5 tonna (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,9 % ga oshgan), 32 264,9 tonna paxtadan yigirilgan ip (2,1 % oshgan), 72 235 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (31,2 % oshgan), 20 885 dona maxsus yengil avtomobil (21,7 % ga oshgan), o'simlik yog'i 10 805,5 tonna (52,2 % kamaygan), xo'jalik sovuni 1 994,2 tonna (52,1 % kamaygan) hamda 87 678,7 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (101,0 % bo'lgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	55068	72235	17167
Maxsus yengil avtomobillar, dona	17158	20885	3727
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	31607,1	32264,9	657,8
Paxta tolasi,tonna	70321,8	81721,4	11399,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	86787,1	87678,7	891,6
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	22590,8	10805,5	-11785,3

Yanvar-dekabr , yirik korxonalar bo'yicha

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,4 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,4 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,0 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 3 936,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,3 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 208,7 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 1 101,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2020- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 125,2 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 105,3 %ni, ishlab chiqarish hajmi 3 773,7 mlrd so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 303,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 40,8 %ni va ishlab chiqarish hajmi 171,9 mlrd so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,02 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 223,9 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 68,3 %ni va ishlab chiqarish hajmi 17,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-dekabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 169,5 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 %ni, fizik hajm indeksi 65,1 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 86,3 mlrd so'mni tashkil etdi.




Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 82,5 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni, fizik hajm indeksi 148,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 52,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2020- yil yanvar-dekabr oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 23,3 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 %ni, fizik hajm indeksi 146,1 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 413,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 44,7 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,8 % .


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 39,9 %ni, fizik hajm indeksi 121,9 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7 030,5 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 597,0 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,3 %ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 24,3 %ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	170,4	633,1	462,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	118,9	115,5	-3,4
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	1918695,0	1715134,0	-203561

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 118,6 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	5615747,0	6129656,0	513909
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	134187197,0	135951614,0	1764417
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	24339797,0	20366087,0	-3973710

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 9,2 %ga, tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 1,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 11 466,1 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 125,5 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 62,6 %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-dekabr

37,9%

2022- yil
yanvar-dekabr

40,0%

Nooziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-dekabr

62,1%

2022- yil
yanvar-dekabr

60,0%


Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib 66,0 %ni, Urganch shahrida 15,4 %ni va Urganch tumanida 3,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (125,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (154,0 %), Tuproqqa'l'a tumanida (127,9 %), Yangiariq tumanida (140,8 %), qayd etildi.

Yanvar-dekabr

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 66,0 %ni, Urganch shahrida 15,4 %ni va Urganch tumanida 3,6 %ni tashkil etdi.



Yanvar-dekabr

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib 79,6 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 6,3 %ni, Xonqa tumanida 2,3 %ni tashkil etdi.

5 670,0 mldr so'm

2021-yil yanvar-dekabr

6 880,6 mldr so'm

2022-yil yanvar-dekabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi

60,0%

107,7%

2021- yil

121,3 %

2022- yil

Xorazm viloyati

121,3

6880,6

Urganch shahri

88,3

435,4

Xiva shahri

97,6

105,9

Bog'ot tumani

85,0

54,3

Gurlan tumani

130,0

70,8

Qo'shko'pir tumani

99,9

53,1

Urganch tumani

92,5

149,8

Hazorasp tumani

121,1

58,8

Tuproqqa'l'a tumani

130,6

5474,2

Xonqa tumani

120,7

158,9

Xiva tumani

96,7

65,4

Shovot tumani

105,3

60,2

Yangiariq tumani

172,1

110,4

Yangibozor tumani

48,0


83,4

o'sish sur'ati

mldr so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib, 45,7 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 28,8 %ni, Urganch tumanida 5,7 %ni tashkil etdi.



Yanvar-dekabr
**Xorazm viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**


Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 51,6 %, shuningdek, Urganch shahrida 17,3 %ni, Urganch tumanida 5,1 %ni, Xonqa tumanida 4,0 %ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati
2021- yil
yanvar-dekabr
13 658,1 mlrd so'm
2022- yil
yanvar-dekabr
18 325,8 mlrd so'm

2021- yil
117,2 %
2022- yil
115,1 %
Xorazm viloyati
Urganch shahri
115,1
18 325,8
Xiva shahri
117,5
3 178,1
Bog'ot tumani
108,3
229,4
Gurlan tumani
110,1
523,0
Qo'shko'pir tumani
104,9
488,5
Urganch tumani
101,8
393,7
Hazorasp tumani
106,1
931,4
Tuproqqal'a tumani
110,8
505,3
Xonqa tumani
114,3
9 458,5
Xiva tumani
107,9
733,8
Shovot tumani
100,5
277,5
Yangiariq tumani
104,8
668,6
Yangibozor tumani
115,6
459,1
FHI, % da
123,5
478,7
mlrd so'm


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Tuproqqa'l'a tumanida (165 222,5 ming so'm), Urganch shahrida (21 427,1 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (11 986,5 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 956,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,1 %ni tashkil etdi.



Xorazm viloyati

2021- yil

yanvar-dekabr

2 972,0 mlrd soʻm

2022- yil

yanvar-dekabr

2 956,0 mlrd soʻm



21,8 %

2021- yil

16,1 %

2022- yil

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari
ishlab chiqarish

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 5 906,8 ming so‘m bo‘lgani holda, Tuproqqa'l'a tumanida 132 174,3 ming so‘mni, Urganch shahrida 11 885,4 ming so‘mni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2021- yil



yanvar-dekabr

4 501,2 ming so‘m

2022- yil

yanvar-dekabr

5 906,8 ming so‘m



Xorazm viloyati

123,4

5 906,8

Urganch shahri

151,4

11 885,4

Xiva shahri

99,8

1 723,1

Bog‘ot tumani

95,3

1 025,9

Gurlan tumani

104,9

1 309,0

Qo‘siko‘pir tumani

98,7

541,2

Urganch tumani

108,5

1 973,9

Hazorasp tumani

111,9

534,6

Tuproqqa'l'a tumani

124,0

132 174,3

Xonqa tumani

116,4

2 104,9

Xiva tumani

98,1

748,8

Shovot tumani

95,4

963,5

Yangiariq tumani

138,6

1 330,2

Yangibozor tumani

54,9

1 486,0

o’sish sur’ati

ming so‘m

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 794 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 849 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,7 %) Urganch shahriga, 544 tasi (11,3 %) Urganch tumaniga, 456 tasi (9,5 %) Qo'shko'pir tumaniga, 408 tasi (8,5 %) Xonqa tumaniga va 405 tasi (8,4 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi bo'yicha 102 ta loyiha mavjud bo'lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 652,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 8,4 mln AQSH dollarlik mahsulot eksport qilinib, 338 ta yangi ish o'rirlari yaratilgan.

Dastur ijrosining shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 22 ta loyihada 178,3 mlrd so'mlik, Xiva shahrida 3 ta loyihada 62,9 mlrd so'mlik, Bog'ot tumanida 5 ta loyihada 10,7 mlrd so'mlik, Gurlan tumanida 11 ta loyihada 33,3 mlrd so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 4 ta loyihada 9,1 mlrd so'mlik, Urganch tumanida 9 ta loyihada 42,1 mlrd so'mlik, Hazorasp tumanida 5 ta loyihada 1,1 mlrd so'mlik, Tuproqqa'l'a tumanida 15 ta loyihada 173,2 mlrd so'mlik, Xonqa tumanida 7 ta loyihada 53,1 mlrd so'mlik, Xiva tumanida 7 ta loyihada 42,3 mlrd so'mlik, Shovot tumanida 5 ta loyihada 40,5 mlrd so'mlik, Yangiariq tumanida 3 ta loyihada 4,3 mlrd so'mlik va Yangibozor tumanida 6 ta loyihada 1,5 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

	2022 - yil yanvar-dekabr	2021 - yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	102	98
Korxonalar soni, birlik	91	78
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm	652,4	459,8